

**Kutilayotgan natijalar:**

o'quvchilar tabiiy materiallardan buyumlarni bezashda foydalana oladi;

o'quvchilar o'simlik urug'lari haqida tasavvurga ega bo'ladi;

o'quvchilar buyumni yasashda ijodiy fikrlash va tasavvur qilishni o'rganadi;

o'quvchilar qog'ozdan tejamkorlik bilan foydalanishning ahamiyatini tushunadi.

**9-DARS. TIPRATIKAN BILAN OLMA****Dars maqsadlari:**

- hayvonot olami haqidagi tasavvurlarni kengaytirish;
- plastilindan buyum yasash texnikasi haqida tushuncha hosil qilish;
- plastilindan buyumlar yasashda va tabiiy materiallardan foydalanishda ko'nikmalarni rivojlantirish;
- mayda motorikani rivojlantirish.

**Kerakli materiallar:** darslik, plastilin, plastilin bilan ishlash uchun taxta va stek, tabiiy material (qarag'ay g'uddasi), buyum namunasi.

**1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).**

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

**2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).**

Dars mavzusini e'lon qilish uchun o'qituvchi topishmoqdan foydalanishi mumkin. Masalan: Qarag'aylar orasida, archalar orasida Yuzta igna yugurdi. Oddiy ignalar emas, Ularda olmalar bor. Bolalar topishmoqni topgach, o'qituvchi darsning maqsadi qarag'ay g'uddasi va plastilindan "Tipratikan" o'yinchog'ini yasash ekanligini aytadi.

**3. Namuna tahlili (5 daqiqa).**

Darsning bu qismi tuzilishiga ko'ra standart tarzda o'tkaziladi. Darslikda yordamchi sifatida o'quvchilar ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari mumkin bo'lgan video yo'riqnoma keltirilgan. O'qituvchi plastilindan yasashning asosiy usullarini tushuntiradi va ko'rsatadi.

O'quvchilar usullarni o'qituvchidan keyin takrorlaydilar:

1. Plastilin bo'lagini bruskanidan ajratib olish uchun uni yulib olish, burash yoki stekdan foydalanish mumkin.

2. Plastilinni yumshoqroq qilish uchun uni kaftlarda isitish mumkin.

3. Plastilin bo'lagini sharcha shakliga keltirish uchun uni yumalatish mumkin.

#### **4. Amaliy qism (25 daqiqa).**

Avvalo o'quvchilarga turli rangdagi plastilindan kichik sharchalar yasash taklif etiladi. Keyin hosil bo'lgan plastilin zagotovkalarini darslikda ko'rsatilgandek g'uddaga mahkamlash, so'ngra jigarrang va qora plastilindan yasalgan tumshuqcha va oyoqchalarini tipratikanga biriktirish kerak.

Ish mustaqil bajariladi. Zarur bo'lsa, o'qituvchi yordam beradi.

#### **5. Yakunlash va refleksiya (5 daqiqa).**

O'quvchilar quyidagi jummalarni yakunlaydilar:

Endi men ... bilaman

Endi men ... qila olaman

Endi men ... bo'laman

Menga ... qiyin bo'ldi

#### **Kutilayotgan natijalar:**

- o'quvchilar tabiiy materiallardan buyumlar yasashda foydalana oladilar;
- o'quvchilar tipratikanlar haqida foydali hayvonlar sifatida tasavvurga ega bo'ladilar;
- o'quvchilar buyum yasashda fantaziya va tasavvurni qo'llay oladilar;
- o'quvchilar plastilindan yasash texnikasini qo'llay oladilar;
- o'quvchilarda mayda motorika rivojlanadi.

### **10-DARS. XONQIZI**

#### **Dars maqsadlari:**

- hayvonot olami va tabiiy materiallar xilma-xilligi haqidagi tasavvurlarni kengaytirish;
- plastilindan buyum yasash texnikasi haqidagi tushunchalarni kengaytirish;
- plastilindan buyumlar yasashda tabiiy materiallardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- mayda motorikani rivojlantirish.

**Kerakli materiallar:** darslik, plastilin, plastilin bilan ishlash uchun taxta va pichoq, tabiiy material (yong'oq po'chog'i), buyum namunasi.